XALQ DEPUTATLARI ZARBDOR TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 3-iyun VII-29-87-3-49-K/26 Zarbdor tumani

Zarbdortuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnoma asosida qattiq maishiy chiqindilarini olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori 8-bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat berilishi, bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar)lar Kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilab qo‘yilgan.

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflari yuzasidan Zarbdor tuman hokimligining 2026-yil 13-maydagi 03-176-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlarva budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish,

budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida” PQ-387-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Zarbdor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflari yuzasidan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i O.Xolmonovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Sanitar qoidalari va me’yorlariga asosan hududlar bo‘yicha o‘rnatilgan me’yorlardan iste’molchining faoliyat turidan, joylashuvidan va xizmatidan foydalanish usulidan kelib chiqib iste’molchi tomonidan 1 m^3 QMCh (qattiq maishiy chiqindilar) hajmi uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning qattiq maishiy chiqindilarini markaziy chiqindi saqlash obyektiga olib borib joylashtirish xizmat haqqi narxi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman Adliya bo‘limi (M.Abdualimov), tuman Ekalogiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi (B.Namazov), tuman Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi bo‘limi (N.Gairov)lar fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (O‘.Sulaymanov)ga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida hamda hokimlik rasmiy veb-saytida e’lon qilish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy o‘tgach kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Qodirov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ARALOV ANVAR MAMADALIYEVICH**

Xalq deputatlari Zarbdor tumani
Kengashining
2026-yil 3-iyundagi
VII-29-87-3-49-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnoma asosida qattiq maishiy chiqindilarini olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha to‘lov tariflari

№	Xizmat nomi va xizmat ko‘rsatiladigan shaxslar	Tip, marka, artikul yoki model raqami	O‘lchov birligi	Tarif miqdori (QQS bilan) *(so‘m)*
1.	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning qattiq maishiy chiqindilarni markaziy chiqindi saqlash obyektiga olib borib joylashtirish	QMCH (qattiq maishiy chiqindilar)	1 m^3	67 200,0